



## BANK DEPOZIT VA KREDIT OPERATSIYALAR AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

*O`zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi 2-kurs tinglovchisi*

**Nosirov Muhriddin Rahmonovich**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank-moliya tizimi milliy iqtisodiyotning tayanch sohalaridan biri sifatida harakat qilmoqda. Ayniqsa, banklar tomonidan amalga oshiriladigan depozit va kredit operatsiyalari moliyaviy vositachilik jarayonining asosi bo`lib, iqtisodiy tizimda erkin pul oqimini ta`minlashda, investitsion faollikni oshirishda va aholining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda beqiyos rol o`ynaydi. Ushbu operatsiyalar orqali banklar bir tomondan aholining va xo`jalik sub`yektlarining bo`sh mablag`larini jamg`aradi (depozitlar), ikkinchi tomondan esa iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirish uchun ushbu resurslarni kredit shaklida qayta taqsimlaydi.

O`zbekiston Respublikasida so`nggi yillarda bank sektorini tubdan isloh qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish va zamonaviy xizmatlar joriy etish bo`yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, hamda “Banklar va bank faoliyati to`g’risida”gi Qonunning yangi tahriri (2022-yil) asosida bank operatsiyalarini liberallashtirish, moliyaviy xavfsizlikni ta`minlash, mijozlarga xizmat ko’rsatish sifati va tezligini oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlar amaliyotga joriy etilmoqda. Shuningdek, “2020–2025-yillarda O’zbekiston Respublikasida bank tizimini rivojlantirish strategiyasi” doirasida depozit resurslarini ko’paytirish va kredit portfelining sifatini yaxshilash ustuvor vazifalar sifatida belgilab qo’yilgan.

Xalqaro tajribaga e’tibor qaratilsa, rivojlangan mamlakatlar – xususan, AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya va Singapurda banklar o’rtasida raqobat asosan mijozlarga qulayliklar yaratish, foiz stavkalari va xizmat ko’rsatish sifati orqali



shakllanadi. Ushbu davlatlarda depozitlar omonatchilarga kafolatli tarzda qaytarilishiga oid sug'urta tizimlari joriy etilgan bo'lib, banklar mijozlarga qo'shimcha bonuslar, soliq imtiyozlari va raqamli xizmatlar orqali yangi mijozlarni jalb etishga katta e'tibor qaratadi. Kredit operatsiyalarida esa har bir mijozning moliyaviy intizomi va kredit tarixi chuqur tahlil qilinadi, kredit skoring tizimi orqali xavflar baholanadi va bu orqali kredit sifati doimiy nazorat ostida saqlanadi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda, ayniqsa hududiy bank filiallari, jumladan "Mikrokreditbank" ATBning viloyat bo'linmalari oldida ham o'z faoliyatini takomillashtirish, xizmatlar ko'lами kengaytirish, raqamli texnologiyalar asosida zamonaviy bank xizmatlarini yo'lga qo'yish bo'yicha muhim vazifalar turibdi. Depozitlarni ko'paytirish uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish, marketing strategiyasini kuchaytirish zarur bo'lsa, kredit operatsiyalarining sifatini ta'minlash uchun risklarni baholash tizimini joriy etish, kredit sug'urtasi va kafolat mexanizmlarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur tezisda aynan bank depozit va kredit operatsiyalarining hozirgi holati, mavjud muammolari, ularni hal etish mexanizmlari va xalqaro tajribaga asoslangan holda amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Bank tizimining resurs bazasini mustahkamlash va iqtisodiyotga yo'naltirilgan kreditlar samaradorligini oshirish bugungi davr talabidir.

Bank tizimining resurs bazasini shakllantirishda depozit operatsiyalari muhim o'rinn tutadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, tijorat banklari depozit bazasining asosiy qismini aholi omonatlari tashkil etmoqda. Biroq ayrim hududiy filiallarda bu ko'rsatkichlar respublika o'rtacha darajasidan past bo'lib, bu hududlardagi moliyaviy savodxonlikning yetarli emasligi, raqobatbardosh xizmatlarning cheklanganligi bilan izohlanadi.

"Mikrokreditbank" ATB Buxoro viloyati filiali misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki:

- Omonatchilarning asosiy qismi qisqa muddatli omonat turlarini tanlaydi;



- Raqamli texnologiyalar orqali depozitlar ochish imkoniyatlari cheklangan;
- Marketing va ommaviy axborot kampaniyalari yetarli darajada olib borilmayapti.

Depozit operatsiyalarini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim hisoblanadi:

- Raqamli bank xizmatlarini kengaytirish (mobil ilovalar, onlayn omonatlar);
- Depozitlar uchun motivatsion mexanizmlar: bonuslar, foiz ustamalari, sovrinli aksiyalar;
- Aholi o'rtaida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha tizimli ishlar olib borish.

Kreditlash banklarning iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatishdagi asosiy vositasidir. Ammo amaliyotda ushbu sohada qator muammolar mavjud:

- Kredit portfelida to'lovga layoqatsiz mijozlar ulushi ortmoqda;
- Kredit tarixi tahlilini avtomatlashtirish tizimi yetarli emas;
- Yosh tadbirkorlar va ayollar uchun imtiyozli kreditlarga kirish imkoniyati cheklangan.

Bu muammolarni hal qilish uchun:

- Kredit skoring tizimini joriy etish zarur;
- Kredit sug'urtasi va kafillik jamg'armalarini rivojlantirish lozim;
- Kredit ajratish jarayonini soddallashtirish va tezlashtirish (raqamlashtirish orqali).

Dunyo amaliyotida bank operatsiyalarining samaradorligini oshirish uchun quyidagi mexanizmlar keng qo'llaniladi:

- **Germaniyada** depozitlar to'liq sug'urtalanadi, bu omonatchilar ishonchini oshiradi;
- **Singapur va Janubiy Koreyada** raqamli kreditlash texnologiyalari keng qo'llaniladi;



- AQShda mijozlar kredit tarixi asosida avtomatik reytinglanadi, bu risklarni kamaytiradi.

O'zbekiston bank tizimiga ushbu tajribalarni bosqichma-bosqich integratsiya qilish orqali depozit va kredit operatsiyalarining sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin.

O'zbekiston bank tizimining barqaror rivojlanishida depozit va kredit operatsiyalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu operatsiyalar orqali banklar moliyaviy resurslarni jalb etadi va ularni iqtisodiyotni moliyalashtirishga yo'naltiradi. Mazkur faoliyatning samaradorligi bank ishonchliligi, mijozlar bilan ishslash sifati, xizmatlar turining zamonaviyligi hamda bank ichki boshqaruv mexanizmlarining samarali tashkil etilganligiga bevosita bog'liq.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Mikrokreditbank" ATB Buxoro viloyati filiali faoliyatida ijobjiy natijalar mavjud bo'lishiga qaramay, hali-hanuz depozitlar hajmini oshirish, kredit portfelining sifatini yaxshilash va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha salohiyat yetarli darajada to'liq ishga solinmagan. Shuningdek, moliyaviy savodxonlikning pastligi, kredit risklarini baholash tizimlarining to'liq shakllanmaganligi kabi muammolar ham mavjud.

Xalqaro tajriba asosida olib borilgan tahlillar shuni anglatadiki, rivojlangan mamlakatlar banklari mijozlarga yo'naltirilgan strategiyalar, sug'urtalangan depozitlar tizimi, kredit reytingi va raqamli xizmatlar orqali yuqori darajada ishonch va samaradorlikka erishgan. Mazkur tajribalardan o'rganib, milliy bank amaliyotini takomillashtirish — hozirgi bosqichda eng muhim vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, bank depozit va kredit operatsiyalarini zamonaviylashtirish, ularni raqamlashtirish, xizmatlar sifatini oshirish hamda mijoz ehtiyojiga moslashtirish orqali O'zbekiston bank tizimining raqobatbardoshligini va barqarorligini ta'minlash mumkin bo'ladi.



## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. (2020). "2020–2025-yillarda bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida". Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. Po'latov Sh.R., Tursunov B.O. (2021). *Bank ishi nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
3. Ergashev B.X. (2020). *Tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish yo'llari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Mishkin, F.S. (2019). *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. 12th edition. Pearson Education Limited.
5. Saunders, A. & Cornett, M. (2018). *Financial Institutions Management: A Risk Management Approach*. McGraw-Hill Education.
6. Basel Committee on Banking Supervision. (2019). *Principles for sound liquidity risk management and supervision*. Bank for International Settlements.